

## NASRDA FALSAFIYLIK VA RAMZIYLIK (ZUHRA MAMADALIYEVA HIKOYALARI MISOLIDA)

**Tashmuratova Dildora Abdurazoq qizi**

JDPU magistranti

### ANNOTATSIYA

Zuhra Mamadaliyevaning “Ustoz va Musavvir” hikoyasi o‘zbek adabiyotda yaratilgan asarlar orasida o‘zining qiziqarliligi, ta’sirchanligi, hayot haqiqati va insoniy harakatlarni ishonarli gavdalandirganligi hamda turmushning murakkab muammolarini dadil ko‘tarib chiqilgani bilan ajralib turadi. Zuhra Mamadaliyevaning hikoyalarining adabiyotda jiddiy hodisa darjasiga ko‘tarilganligi mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

#### **Kalit so‘zlar:**

Hikoya, nazariy tamoyillari, syujeti, umr, adolat, qondoshlik, konkret

#### **KIRISH**

Adabiy hayotimizda yangi-yangi asarlar paydo bo‘lmoqda. Shunday ekan, ushbu asarlarni tahlil qilish ehtiyojini keltirib chiqarishi tabiiydir. Keyingi davr o‘zbek nasri, dramaturgiyasi taraqqiyotiga sezilarli hissa qo‘shib kelayotgan ijodkorlardan biri Zuhra Mamadaliyevaning hikoyalaridir. Yozuvchining turfa xil xarakterdagi hikoyalari bu janr taraqqiyotiga katta hissa bo‘lib qo‘shilgan. Adibaning xarakter yaratish an’anasi hayot voqeligini aks ettirishdagi o‘ziga xos tasvir usuli mavjud. Jizzaxlik yosh adiba Zuhra Mamadaliyevaning hikoyalari adabiyot muxlislariga ko‘p ham ma’lum emas. Boisi kamsuqum bu ijodkor respublika matbuotida kam ko‘rinadi. Uning tanishib chiqish uchun topshirgan bir nechta hikoyalari o‘zining syujeti, voqealar rivoji va kutilmagan yechimi bilan e’tiborni tortdiki, yozuvchi opa-singillarimiz safiga yana bir iste’dod egasi qo‘shilganiga amin bo‘ldik. Hikoyalar syujeti olis o‘tmishga, zardushtiylik davriga borib taqaladi. Yo‘q, Zuhraning hikoyalarida aniq, konkret bir tarixiy siymo ko‘rinmaydi. Hikoyalarning qahramonlari to‘qima shaxslar. Bu asarlarda faqat makon, muhitgina olis moziydan darak beradi. Hikoyalarda harakat qilayotgan qahramonlarni bir so‘z bilan o‘zligini izlayotganlar, o‘z qadrini anglash yo‘lida aziyat chekayotganlar, umr, adolat va qondoshlik mohiyatini bilishga intiluvchilar deb atagan ma’qul.

**Mavzuning dolzarbligi:**

Zuhra Mamadaliyevaning “Ustoz Musavvir” deb nomlangan hikoyasi nasrda falsafiylik va ramziylikda dolzarb masaladir. Hikoyada Bir Ustoz musavvir bor edi. U bo‘shliq aro mo‘yqalamini o‘ynatdi. Bo‘shliqqa jon kirib, xuddi polotnodagi singari tasvir paydo bo‘la boshladi. Faqat bu tasvirlar bola ko‘rgan boshqa suratlarga o‘xshamas, ularda jon, harakat va ...musiqa bor edi. Unda yashil rang sirli joziba orasida jilva qilardi. Go‘yo musavvir tasviri emas, dunyo yashillik ichiga jo bo‘o‘lgani kabi. Bu yashillik aro musavvir mo‘yqalami tegar-tegmas ajib mo‘jizalar sodir bo‘la boshladi. [1]

**Tadqiqot vazifalari:**

- hikoyaning nazariy tamoyillari va tasvir yo‘sini, taraqqiyot bosqichlarini aniqlash;
- adiba hikoyalaridagi milliy va umuminsoniy qadriyatlar ifodasi tadrijiga oid yangiliklarni kuzatish va tahlil qilish;

**Mavzuning ahamiyati:**

Bola eshitgan ertagi ta'sirida xayol sura-sura ko‘zlarini yumdi. Kipriklari bir-biriga ilinib, uni uyqu degan sirli saltanat tomon olib ketdi... U tush ko‘rar ekan, shiringina jilmayib qo‘ydi. Bola hozirgina tinglagani ertak kabi sirli, o‘zi endigina kirib kelayotgan dunyo hayotidan ko‘ra ham jozibaliroq tush ko‘rmoqda edi.

Zamin maysazorga aylandi. Unda esa har xil gullar unar, qushlar sayrar, kapalaklar quvlashardi. Bola qushlar sayrog‘ini eshitar, kapalaklar o‘yinidan zavq olar, gullar iforini his etardi. Olislarda qad rostlagan musaffo tog‘lar bag‘rida ohular quvlashar, huv olisdagi yaylovda bir qora toychoq o‘ziga o‘xshagan onasiga talpinardi. Bu rango-rangliklar, bu holatlar va bu musiqa umumiy yashillikka uzukka ko‘z yoki go‘zal yuzga qora xol kabi yarashardi. Osmon niliy – beg‘ubor, unda quyosh yayrab, charaqlab nur sochar, yashilliklar uzra ziyo taratardi. Lekin bu go‘zalliklarni bunyod etgan Ustoz musavvirning o‘zi ko‘rinmas, uzun va qora mo‘yqalami namoyon bo‘lardi, xolos.

Birdan Ustoz musavvir bu benazir ijod namunasini yo‘q qila boshladi. Yashillik ustiga tortilgan zim-ziyo bo‘yoqlar yashnab turgan gullarni so‘ldirar, sayrayotgan qushlarni nobud qilar, ohularni Sayyod o‘qiga duchor bo‘lganday qulatar, toychoqni ham ajal qa'riga irg‘itardi. Tog‘lar larzaga kelib, qoq ikkiga bo‘lindi, zamin bag‘ri yondi, suvlar quridi va hamma narsa zim-ziyo zulmat bag‘rida yo‘q bo‘ldi.

Bola uyg‘ondi. Derazada oqarib kelayotgan tong namoyon, hamma narsa o‘z o‘rnida edi.

Bola ulg‘aydi. Biroq bu tush, shu birgina ro‘yo hech qachon uning esidan chiqmadi. Bu tush uning kelajagiga daxldor ekanligini anglar, aniqrog‘i g‘ayrioddiy idrok ila his etardi bola. Shuning uchun u Ustoz musavvirga taqlidan rassom

bo'lmoqchi bo'ldi. Orzusiga intilib, o'sha tushida ko'rgan manzarani qayta-qayta qog'ozga tushirdi. Biroq o'z ijod namunalarining hech qaysisidan ko'ngli to'lmadi. Nazarida bu chizmalar Ustoz musavvirning suratiga o'xshamasdi. Kapalaklar, gullar, quyosh, umumiy yashillik – hamma-hammasi joyida, biroq bu suratlarida uning asliyatidan farqli ravishda ruh, jon yo'q edi. Kapalak parvozi, gullarning nozik silkinishi, qushlar chug'uri, musiqa – mana shu narsaning yo'qligi bu suratlarini jonsiz jasadday qilib ko'rsatgan edi bolaning ko'ziga. Shuning uchun bola bu ijod namunalaridan ko'ngli to'lmadi va ularni Ustoz musavvirga taqlidan yo'qlikka mahkum etdi. Balki, u ham o'z suratlaridan ko'ngli to'lmagandir, o'yladi bola. Keyin bu fikridan qaytdi. Aniqrog'i, bu fikriga o'zi ishonolmadi. Chunki surat juda benazir san'atkorlik ila yaratilgan, ularda musiqa, tasvir va ruh uyg'unligi mujassam etilgan edi.

Bola bu tasvirlarni so'z bilan ifodalashga kirishdi. Zero, so'zni qudratli qurol deydilar. U o'sha tasvirlarni qayta-qayta ifodalab, she'rlar bitdi, hikoyalar yozdi. Yozganlarida o'sha tasvirlarni jonlantirmoqchi bo'ldi. Biroq bu harakatlari-da o'zi uchun besamarday ko'rindi. Yozganlaridan ham uning ko'ngli to'lmadi. So'zda ham o'sha nur, o'sha ruh jonlanmas edi. Bu orada bola bir narsani anglab qoldi. Uning ko'nglida ilmga tug'ma muhabbat bor ekan. Biror kitobni o'qisa, nimanidir, zarradek narsani kashf etsa ham, ko'nglida o'sha tushida ko'rgani isitib, jizg'anak qilmaydigan, biroq kishi ko'nglini yoritadigan quyosh nurlari porlagandek, kapalak jilvalari tovlanib, gullar ifor sochganday bo'lardi. Olam yashillikka to'lardi, go'yo. Bola ilm orqali o'sha tushning haqiqatiga etishi mumkinligini angladi. Shu boisdan ilmga qattiq mehr qo'ydi. U barcha ilmlarni birday o'zlashtirdi. Birini biridan ajratmadi. Hamma ilmlarni o'qishga, ular zamiridagi haqiqatni anglashga harakat qildi. Hech kimga aytmagan esa-da o'sha tush uning xayolidan hech qachon faromush bo'lmas, har safar nimadinidir anglasa, nedandir shodlansa yoki xafa bo'lsa, qaydaydir favqulodda xabar eshitsa, o'sha zahotiyoy ko'z o'ngida o'sha sirli va jozibali ro'yo paydo bo'lar va qayta takrorlanardi.

Ushbu hikoyada aniqlik va inson qalbiga singadigan fikrlar ruhiyatni ko'taradigan, adabiy so'zlarning ko'pligi, o'quvchini o'ziga jalb qiladi.

Bola ichki bir sezim tufayli bu tushni hech kimga aytib bo'lmasligini, ro'yo qandaydir rishtalar orqali uning hayotiga, taqdiriga bog'langanligini, uning tilsimini ham faqat bolaning o'zi echa olishi mumkinligini va shunga mahkumligini anglardi. Balki uning maqsadi tushning ta'biriga bog'liqdir. Bu maqsad Yo'lchi yulduz bo'lib uning yo'lini yoritdi. Horigan chog'larida umid mash'ali bo'ldi. Mana shu yulduz yo'ldoshligida, mana shu Mash'al charog'bonligida u poytaxtga bordi. Ulug'dargohlar tolibi bo'ldi. Buyuk insonlardan ta'lim oldi. Maqsadga etish uchun kechani quvvat, kunduzni imkon manbai deb bildi.

Biroq bir kuni... bir kuni u kutubxonaning go‘zal va salobatli binosidan chiqib, chekkalariga yam-yashil chim bosilgan yo‘lakdan yurib kelarkan, unga yo‘lda bir qiz uchradi. Qizning sochlari Tim qora, ko‘zlari moviy, yuzlari sutga chayilgan kabi oq, ko‘ylagi esa pushti edi. Samoda ham quyoshning so‘nggi nurlari pushta rangga kirib, moviy osmondagi oppoq bulutlarni ham pushtiga bo‘yagan edi. Bir daqiqa bolaning xayoli faromush bo‘ldi. Shunda endi u bola emas, yigit bo‘lganligini his etdi. Bir lahza uning ko‘z o‘ngini pushtirang tuman qopladi. Dunyo pushtirangga evrildi. O‘sha kundan yigitning halovati yo‘qoldi. Qizni qidirib o‘sha kutubxonaga bormagan kuni, uni topolmay, noumidlik chohiga tushib qaytmagan oqshomi qolmadi. Xayoli faromush bo‘ldi. Ko‘ziga ilm ham, oydin kelajak ham, hatto yaxshi niyatlarining ijobati bo‘lgan o‘sha tush ham ko‘rinmay qoldi. Shu kabi umidsiz oqshomlarning birida u yana tush ko‘rdi.

Yotoqxonasi karavotida yotgan talaba yigit mayingina jilmayib yonboshiga ag‘darildi. Uning bu tabassumida anchadan beri uchratmagan qadrdonini ko‘rib qolgan kishining quvonchi akslangandi.

Tushida u bolaligida ko‘rgani Ustoz musavvir bu safar polotnoni –bo‘shliqni pushti rangga bo‘yadi. Pushtilik ichida gullar barq urar, daraxtlar yaproq yozar, qushlar hushnavo ovoz ila sayrar, pushtirang nurlari ila endigina shafaqdan bosh ko‘targan quyosh go‘yoki uning yuragida nur sochib, porlayotganday edi. Olislardan yaproqlar shitiri, gullar silkinishi, kapalaklar parvozining ajib bir uyg‘unligidan hosil bo‘lgan go‘zal musiqa inson ko‘nglini hush aylab, uni bedor etishga chorlar, aniqrog‘i yigitning yurak dukuri bilan hamohang tarzda sadolanardi. Bu pushtirang borliq ichida balqib, yana singib ketayotgan hamma narsa – qushlar, gullar, ohular, toychoqlar – hammasi juft-juft edi va o‘sha go‘zal musiqaga uyg‘un tarzda bir-biriga intilardi. Shu uyg‘unlik ichida, uning qalbidagi kabi alanga sochayotgan quyosh bosh ko‘tarayotgan tomonda pushtirang libosli bir go‘zal qiz boshidagi tovus ro‘molini hilpillatib, atrofga gul iforlarini taratgancha, xiromon aylab kela boshladi. Yigit uning kimligini yurak-yurakdan his etgan bo‘lsa-da, baribir uning diydorini ko‘rishga oshiqdi. Mana, qiz tobora yaqinlashib, uning huzuriga (u o‘zini ko‘ra olmas, faqat borligini his etardi) etib keldi. Yigit uning upkarday mayin qo‘llarini tutdi. Xiyol bosh burib, jilmaygan istig‘nosini his etdi.

Keyin esa... keyin yana hammasi birdan sodir bo‘ldi. Ustoz musavvir mo‘yqalamidagi zim-ziyo bo‘yoq hamma yoqni va hamma narsani vayron qildi. Qushlarning ini buzilar, polaponlar chilparchin bo‘lgancha nobud bo‘lar, ohular, toychoqlar, qushlar jon talvasasida juftini tark etib, o‘zlarini to‘rt tomonga urishar, Lolazorlar hazonga aylanar, Azim daraxtlar gursillab erga qulardi. Hatto moviy osmon ham zulmat qa‘riga singib ketdi. Bu taloto‘plar ichida go‘zal qiz qaerga ketganligini, aniqrog‘i qanday g‘oyib bo‘lganligini yigit anglay olmay qoldi.

Yigit bu safar yuragi g'ash bo'lib uyg'ondi. Biroq bu g'ashlik orasida allaqanday safo ham bor edi. Safo bugun va erta uchun, g'ashlik esa undan keyingi kunlar uchun atalganligini anglardi u.

O'sha kuni u yana tasodif tufayli o'sha qizni ko'rdi. Tasodif tufayli ularning yo'li birlashdi. Balki bu tasodif emasdir. Balki faylasuflar aytganidek tasodif umuman yo'qdir. Hamma narsa o'sha tush singari mustahkam qonuniyat asosida amalga oshar. Yaralish, taraqqiy etish va vayron bo'lish qonuniyatiga asosan.

Yigit u go'zalni har safar ko'rganida ularning yo'llari tutash ekanligini anglar, qiz bilan o'zining orzulari uyqash ekanligidan ham ajablanmas, xuddi hammasi shunday bo'lishi kerakday edi. U qizning moviy ko'zlariga qarab tushidagi moviy tog'lar va osmon esiga tushar, oppoq yuziga termulib ertangi oydin kelajak xayoliga cho'mar, biroq qizning qop-qora sochlariga boqib, tushidagi zim-ziyo bo'yoq ko'z o'ngida jonlanardi. Nega bunday bo'lishi kerak?! Nega bu oydin kelajak va'da etgan oydin yuzlar, poklik va musaffolik ramzi bo'lmish ko'zlar, ishq va jon so'rab turgan dudoqlar yo'qlikka – zulmat qa'riga mahkum bo'lishi lozim?!

### **XULOSA**

Zuhra Mamadaliyevaning badiiy ijod olamiga kirib kelganidan tortib, to bugungi kungacha bo'lgan ijodiy kamolotini tadrijiy tarzda tadqiq etish orqali adibaning nasriy asarlaridagi o'ziga xos xususiyatlari, yutuq va kamchiliklari sabablarini ko'rsatib berishga urinildi. Xususan, bir necha hikoyalari misolida yosh yozuvchi nasriga xos ko'plab asosiy xususiyatlar aniqlandi. Shunday xususiyatlar jumlasiga yozuvchining ayol qalbini va karakterini chuqur badiiy tadqiq qilib, ular to'g'risidagi haqiqatni ifodalashga intilishi, syujetning qiziqarliligi va ko'pincha noan'anaviy qurilganligi, hayotning muammolari jasorat bilan yoritilganligi hamda ezgu ijtimoiy ideallar tasdiqlanganligi kabi belgilar kiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI: (REFERENCES)**

1. Adabiy turlar va janrlar. 3 jildlik. 1-jild. Akademik B.Nazarov tahriri ostida. – T., 1991.
2. Anri Barbyus. Zolya v 1932. V knige “Nazıvat veşci svoimi imenami”. – M.: 1986, S. 76.
3. Aristotel. Poetika. – T.: “Adabiyot va san'at”, 1980.
4. Ahmedova. M. Xulio Kortasar: XX asr ma'naviy hayotidan bir lavha. Jahon adabiyoti. 2009 yil, oktyabr.
5. Boboev T. □Adabiyotshunoslik asoslari”. Toshkent. 2002, 470-471 betlar.
6. Boltaboev H. Nasr va uslub. – T.: “Fan”, 1992.
7. G'afurov I. O'ttiz yil izhori. – T.: “G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti”, 1981-1983